

**Ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi
25-22 sonli SHARTNOMA**

Samarqand.

24.01.2022 y.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» Davlat unitar korxonasi **Samarqand viloyati filiali** (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan 07.01.2021 yil 6/04-04-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor **Sh. Ilmuratov** bir tomondan **Samarqand Davlat Chet tillar Instituti** (keyingi o'rinlar «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan N. Xon asosida faoliyat yurituvchi **Rektor** T. X. X. J. ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar», quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha: **Samarqand davlat chet tillar instituti hududidagi mavjud Talabalar turar joyi va bosh binoning asosiy kirish qismidagi santexnika ishlarini joriy ta'mirlash** ob'ektining loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi, o'z navbatida, ekspertizadan o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ekspertizani o'tkazish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Buyurtmachi tomondan oldindan pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng 30 ish kuni, agar Buyurtmachiga hujjatlarni taqdim etish bo'yicha (kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida) xat yuborilgan bo'lsa, ishlarni bajarish muddati Bajaruvchining xatida belgilangan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi. 27.11.2021 yildagi 3216/30.02.01-sonli murojaati asos hisoblanadi.

1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi ekspert xulosasi hisoblanadi.

1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shaxslarni jalb etish bilan Buyurtmachi manfaatlarini ko'zlab ishlarni bajaradi.

II. SHARTNOMA BAHOSI VA O'ZARO HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning shartnomaviy narxlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-son qarorining 6-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Shartnoma qiymatining hisob-kitobi:

$$270000 * 2 = 540000 + 15\% \text{ QQS}$$

Jami to'lovga: 621 000 (Olti yuz yigirma bir ming) so'm 00 tiyin, shu jumladan QQS 15% 81 000 (sakson bir ming so'm 00 tiyin).

2.2. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 30 % miqdorini oldindan to'laydi, qolgan 70 % miqdorini ishlar bajarilgandan so'ng topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va hisob-faktura imzolanganidan keyin 10 (o'n) kun ichida to'lovni amalga oshiradi.

2.3. Ekspertizadan o'tkazish ishlari bajarilib, o'zaro to'liq hisob-kitob qilingandan so'ng, Bajaruvchi aybdor bo'lmagan taqdirda mazkur shartnoma predmeti bo'yicha takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o'tkazish uchun xaq to'lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.4. Shartnoma majburiyatlari bekor qilinganda, shartnomaviy hujjatlar (bajaruvchining nusxalari) hamda qayta ishlashga va takomillashtirishga qaytarilgan loyiha materiallari taqdim etilmaganda, bajarilgan ish hajmidan qat'iy nazar to'langan mablag'lar qaytarilmaydi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha hujjatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi;

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) Bajaruvchiga ekspertizadan o'tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni o'z vaqtida to'liq taqdim etish;

b) ekspertizadan o'tkazish xizmati haqini o'z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to'lovni amalga oshirish;

v) ekspertiza xulosasini olish bilan birgalikda ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish. Hujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularning saqlanishi uchun javob bermaydi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

4.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga bajarilgan ishlar uchun to'lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun shartnoma bahosining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0.5 % miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4.4. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

4.5. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, kelishmovchiliklarni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

V. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR

5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar:

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lgan har qanday xatti-harakatlarini amalga oshirmaslik;

shu jumladan pora taklif qilmasligi, va'da bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita pora olishiga, ya'ni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlarini yo'lida «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimi o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan xarakatlarni bajarmasligi shart.

Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydilar.

5.2. Agar tomonlar shartnoma shartlarining buzilishiga duch kelsa, shuningdek, «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimlarining ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lgan xatti-xarakatlari, shu jumladan korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilganligi haqida quyidagi aloqa kanallariga murojaat qilish mumkin:

«Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Samarqand viloyati filiali ishonchli telefonlari 366-233-05-53

VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

6.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy hisoblanadi.

6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

6.3. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

VII. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaz kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Fors-major holatlari deb quyidagilar hisoblanadi:

- tabiiy olatlar, yong'in, epidemiya, avariya hamda boshqa omillar va holatlar, bunday holda majburiyatlarni bajarish muddatlari fors-major holatining davom etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi.

7.2. Ikkala taraf mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishlari lozim.

7.3. Fors-major holatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdig'i sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma tomonlar imzolaganidan so'ng kuchga kiradi. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa aynan bir xil va teng yuridik kuchga ega.

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

Bajaruvchi:

O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi huzuridagi
"Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK

Samarqand viloyati filiali

Manzil: 703003, Samarqand sh., Ko'ksaroy maydoni 2-D

H/R: 2020 8000 6008 8257 3006

STIR: 305 550 214 IFUT: 71120


Bank: Samarqand shahar "Furon bank" ATB

Samarqand viloyati filiali

M/F: 00282 Telefon: 233-03-89, 233-05-53

O'RN Ruxsatdano'rti raqami: 3260500002278

Diplomant  Sh. Ilmuratov

Hududiy  Sh. Dehqanov

Diplomant № 15873 02.07.2007 y

Buyurtmachi:

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti

Samarqand sh. Boltanovoy 93

Tel: 66-238-29-50, 238-29-51

R/R: 400110860184017094100049006

LUN: 202001213 H/F: 00014

O'QID: 85410 Markaziy bank

AKKA TAP AC O.B

Rektor  Juxtalarov D
Yurisi  T. To'raqulob

DALOLATNOMA

24.01.2022 yildagi 25-22 -sonli shartnomaga asosan
bajarilgan ishlarni topshirish - qabul qilish bo'yicha
« _____ » _____ 2021 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» Davlat unitar korxonasi Samarqand viloyati filiali 04.01.2021 y. 6/04-04-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor Sh.Ilmuratov va «Buyurtmachi» Samarqand Davlat Chet tillar Instituti

Samarqand davlat chet tillar instituti hududidagi mavjud Talabalar turar joyi va bosh binoning asosiy kirish qismidagi santexnika ishlarini joriy ta'mirlash ob'ektining loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi 24.01.2022 yildagi 25-22-sonli shartnomaga asosan ekspert xulosasi Buyurtmachiga 2 nusxada berilgani xaqida tuzdilar.

Buyurtmachi ekspert xulosasini qabul qildi va xulosaning sifati va to'liqligi bo'yicha bajaruvchiga e'tirozlari mavjud emas.

621 000 (Olti yuz yigirma bir ming) so'm 00 tiyin, shu jumladan QQS 15% 81 000 (sakson bir ming so'm 00 tiyin

Topshirdi Bajaruvchi:
O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi
xuzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari
ekspertizasi" DUK Samarqand viloyati filiali

Manzil: 703003 Samarqand sh., Ko'ksaroy maydoni 2 D
H/R: 2020 8000 6008 8257 3006
STIR : 305 550 214 IFUT: 71120
Bank: Samarqand shahar "Turon bank" ATB Samarqand viloyat filiali
MFO: 00282 Telefon: 233 3 11 53
QQS Ruyxatdan o'tish raqami: 526121002278

Direktor _____



Sh.Ilmuratov

Qabul qildi Buyurtmachi:
Samarqand Davlat Chet tillar Instituti

Samarqand sh. Bektovoy 93
Tel: 66-238-29-50, 238-29-37
h/ir: 400110860184017094100049006
LNN: 201001213 MFO: 00014
OKEO: 85420



Tuxtasinov I